
Patent bazalari bilan ishlash bo‘yicha amaliy seminar o‘tkazildi

2018-yil 12-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fizika-Quyosh” IICHB Fizika-texnika institutida tashkil etilgan “Texnologiya va innovatsiyalarni qo‘llab quvvatlash markazi” hamda “Intellektual mulk sohasidagi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv markazi” davlat unitar korxonasi (“IP-center”) bilan o‘zaro hamkorlikda o‘quv seminari o‘tkazildi.





Ushbu seminarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi fizika-matematika va texnika fanlari kompleksi ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Butun jahon intellektual mulk tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning patent bazalari bilan ishlash bo‘yicha amaliy va nazariy bilimlar berildi.